



## 2019 yilning yanvar oyida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1574,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **97,0 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **197,9 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati **102,7 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **12,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **13,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 1574,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 97,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda - 91,5 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 102,5 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashda – 99,5 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 92,8 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 693,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,0 % ni tashkil etdi.

Tog'- kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'ycha gaz kondensati qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,0 % ga oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 6,3 % ga, tabiiy gaz – 3,7 % ga, chaqiq tosh – 77,5 % ga, shag'al – 66,1 % ga, qum – 45,6 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

### **Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**





2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
<b>Neft, ming tonna</b>			
49,0		45,9	93,7 ↓
<b>Tabiiy gaz, mln.kub.metr</b>			
2943,9		2836,2	96,3 ↓
<b>Gaz kondensati, ming tonna</b>			
122,1		123,4	101,0 ↑
<b>Shag'al, ming tonna</b>			
18,7		6,3	33,9 ↓

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 643,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,9 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 2,5 % ga, alkogol ichimliklar 50,4 % ga, ip-kalava – 31,1 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va plastmass quvurlar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
515,3	<b>Plastmass quvurlar, tonna</b> 	475,0	92,2 ↓
11,9	<b>Polietilen, ming tonna</b> 	12,1	102,5 ↑
137	<b>Alkogol ichimliklar, ming. litr</b> 	206	150,4 ↑
1448	<b>Ip-kalava, tonna</b> 	1898	131,1 ↑

2018 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
--------------------------------------	---	--------------------------------------	----------------------

**Paxta tolasi, tonna**

18542



13458

72,6 ↓

**O'simlik yog'i (tozalangan), tonna**

1316,0



1007,0

76,5 ↓



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.***

2019 yil yanvar oyida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 226,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,4 % ni) tashkil

etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 68,2 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 57,8 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 197,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 12,6 % ni tashkil etdi.

### ***2019 yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



2019 yil yanvar oyida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 58,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 41,6 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,8 % tashkil etdi.


### Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 34,8 % ulushini), G'uzor (19,8 %), Nishon (12,0 %) tumanlari, Qarshi shahri (9,8 %) va Qarshi(4,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### 2019 yilning yanvar oyida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Kitob (1,2 %), Shahrisabz (1,2 %), Chiroqchi (1,6 %), Mirishkor (1,8%), Yakkabog' (1,9 %) va Qamashi (2,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmiga Muborak tumani 548,2 mlrd. sumni, G'uzor tumani 311,3 mlrd. sumni, Nishon tumani 188,9 mlrd. sumni va Qarshi shahri 154,3 mlrd. sumni sezilarli darajada tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar oyida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi**



### 2019 yil yanvar oyida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari 2018 yil yanvar oyiga nisbatan %




Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahrida (2018 yil yanvar oyiga nisbatan 106,0 % ga, Qarshi tumanida (105,3 % ga), Shaxrisabz tumanida (104,8 % ga) va Shaxrisabz shahrida (104,9 % ga) darajaga oshdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 33,5 %), Shaxrisabz (8,5 %), Koson (7,1 %) tumanlarida va Shaxrisabz shahrida (8,0 %) ishlab chiqarildi.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (6533,9 ming so'm), G'uzor tumanida (1576,0 ming so'm), Nishon tumanida (1286,7 ming so'm) va Qarshi shahrida (572,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (495,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2019 yilning oyida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 13,6 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (48,9 %), Yakkabog` tumanida (48,1 %), Shaxrisabz tumanida (76,2), Qamashi (44,1 %), Qarshi (48,0%) va Shaxrisabz (49,3 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (0,8 %), G'uzor tumanida (1,6 %), Nishon tumanida (2,5 %) va Dehqonobod tumanida (8,8 %) kuzatildi.


### ***2019 yilning yanvar oyida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da***



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 559 tasi Qarshi shahrida, 361 tasi Kitob tumanida, 256 tasi Shahrisabz shahrida, 239 tasi Yakkabog` tumanida, 211 tasi Qarshi tumanida, 193 tasi Chiroqchi tumanida, 154 tasi Qamashi tumanida, 127 tasi Shahrisabz tumanida, 142 tasi Koson tumanida, 116 tasi G'uzor tumanida, 90 tasi Kasbi tumani, 55 tasi Muborak tumani, 76 tasi Nishon tumanida, 53 tasi Dehqonobod tumanida va 56 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

### **2019 yil 1 fevral holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar oyida viloyatda 200 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 20 tadan ortiq Qarshi shahriga, Chiroqchi va Kitob tumanlariga, 10 tadan ortiq Qarshi, Yakkabog`, Kasbi, Nishon, Shahrisabz, G'uzor tumanlariga va Shahrisabz shahriga to'g'ri keladi.